




3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopiq texnik holati tufayli iste'molchining oqava tarmoqlarida yoki «**Suv ta'minoti**» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida qolish, suv bosishi) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «**Suv ta'minoti**» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in qurilmalar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «**Suv ta'minoti**» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalarining butligi va saqlashi;

3.2.4. Shaxar suv bilan ta'minlash yoki oqava suvlarni uzatish tarmog'iga ulanishdan oldin, «**Suv ta'minoti**» dan belgilangan tartib asosida (DXM, m, xati asosida) Texnik shartlarini oladi, unga suv ta'minlash yoki oqava suvlarni uzatish tarmog'ining va o'ziga tegishli shaxar suv tarmog'iga ulangan barcha ob'ektlarning joylashish loyixasini taqdim etadi. «Iste'molchi» shaxar suv yoki oqava suvlarni uzatish tarmog'iga ulanish yoki undan uzilish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

3.2.5. «**Suv ta'minoti**» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikni buyniga oladi;

3.2.6. Shaxar suv tarmog'iga ulangan har bir quvuriga suv o'lchash yig'masi (suv o'lchash va suv tutqich asbobi)ni Qoida asosida qulay va himoyalangan joyda, o'rnatiladigan suv o'lchagich shartli o'tkazmasi (kalibri)ning diametri «**Suv ta'minoti**» ning hisob-kitobi bilan aniqlanib, ob'ektning maksimal va minimal suv iste'moli tekshirilgach, tegishli ruxsatnoma berilgach o'rnatishni amalga oshiradi. Suv o'lchagich yig'masini xarid qilish va uni o'rnatish bilan bog'liq barcha sarf xarajat «Iste'molchi» zimmasiga bo'lib, u suv o'lchagich qurilmasi, uning texnik soz holati bo'yicha javobgar hisoblanadi va o'lchagichni Davlat standart ko'rigidan o'tkazish sertifikatini amal qilish muddati o'tishidan 1 oy oldin bu haqda xabar beradi, o'lchagichni turiga qarab. ichimlik suvini xisobga olish uskunasi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. «Iste'molchi» ga bu uchun 1 oy muhtal beriladi, belgilangan muddat ichida qiyoslovdan o'tkazilmagan taqdirda suv sarfi shartnomani 6.2 bandiga asosan hisoblanadi.

3.2.7. Iste'molchi suv o'lchagich yig'masidagi muxrlarning saqlanishini nazorat qiladi va buzilgan yoki suv o'lchagich ishdan chiqqan hollarda «**Suv ta'minoti**» ga zudlik bilan yozma ravishda xabar berishni o'z zimmasiga oladi. Xabar berilmagan taqdirda yoki «**Suv ta'minoti**» xodimlari tomonidan aniqlangan holatda suv sarfi belgilangan tartib asosida hisoblanadi (shartnomaning 6.2 bandi). Suv o'lchash asboblari «Uzstandart» organlari yoki ularning vakolatli korxonalari tomonidan tekshirilishini, muxrlanishini hamda doimiy tekshiruvdan o'tishini o'z hisobidan ta'minlaydi. Suv o'lchash asbobini ta'mirlash yoki almashtirish, tekshirish maqsadida yechib olishdan oldin «**Suv ta'minoti**» suv o'lchagichni oxirgi ko'rsatmalarni yozma tasdiqlaydi.

3.2.8. Ichimlik suvi ta'minotining yong'in qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilgan «Iste'molchi» 24 soat mobaynida «**Suv ta'minoti**» tashkilotiga tanga uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfnlarni tamgalash uchun «**Suv ta'minoti**» tashkiloti vakilini chaqirish shart.

3.2.9. Mazkur shartnoma imzolaniishi jarayonida o'z qarori va buyrug'i bilan (kelgusida o'zgargan holatida) ichki suv yetkazish tarmog'iga, suv o'lchagich asboblari va korxona hisobotlarini taqdim etish uchun mas'ul bo'lgan javobgar shaxsini tayinlab, «**Suv ta'minoti**» ga ularni taqdim etadi. Iste'mol davri boshlanishi va kelgusi xar yil boshida oylik suv iste'mol miqdorini «**Suv ta'minoti**» bilan kelishib, tasdiqlaydi.

3.2.10. «**Suv ta'minoti**» vakilini suv o'lchash asbobi o'rnatilgan joyini va suv tarmog'ini istalgan paytda biror bir tuskiniksiz ko'zdan kechirishni ta'minlashi shart. Aks holda joriy oy uchun suv sarfi shartnomani 6.2 bandiga asosan hisoblanadi.

3.2.11. Shaxar suv tarmog'iga noqonuniy ulangani, foydalanilayotgan suv uskunalarining nosozligi va o'z hududidagi ichimlik suvidan behisob, tejamisiz sarflangani uchun «qoidalar» asosida javob beradi.

3.2.12. «**Suv ta'minoti**» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 20 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «**Suv ta'minoti**» ga kechikmagan holda hisobot oyida sarflangan ichimlik suvi bo'yicha vakolatli shaxslar tomonidan imzolaniib, muhri bilan tasdiqlagan hisobotni topshiradi, ichimlik suvini yetkazib berish va oqava suvlarni qabul qilish xizmatlari uchun amaldagi tariflar asosida «**Suv ta'minoti**» ning ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan boshqa xizmat to'lovlarini o'z vaqtida to'lab boradi. Hisobot belgilangan muddatda topshirilmaganida shartnomaning 6.2 bandiga asosan va yoki undagi ma'lumotlar kamaytirib ko'rsatilgan hollarda esa ichimlik suv sarfi hisobot davri uchun shartnomaning tegishli bandiga asosan kayta hisoblanib, to'lovga qabul qilinadi. Agar hisobot taqdim etish jarayonida, «**Suv ta'minoti**» xodimi unda xatoliklar aniqlab, tuzatish kiritib, nusxasini qaytaradi. Iste'molchi tomonidan mazkur o'zgartirish, tuzatishlar asosida o'zining hisobotlarini 3 kunlik muhtal «**Suv ta'minoti**» ga qayta taqdim etishi shart, aks holda bu tuzatishlar bilan topshirilgan hisobot asosli, haqiqiy deb hisoblanishiga olib keladi va foydalanilgan miqdor uchun to'lovni amalga oshirilishini talab qilishga asos hisoblanadi.

3.3. «**Suv ta'minoti**» ning huquqlari:

3.3.1. «**Suv ta'minoti**» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste'molchi» ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va «**Suv ta'minoti**» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «**Suv ta'minoti**» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganida;

b) «**Suv ta'minoti**» tashkilot mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «**Suv ta'minoti**» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganida;

v) «**Suv ta'minoti**» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

ye) «Iste'molchi» ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «**Suv ta'minoti**» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganida va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.2. Suv o'lchash asboblarning ko'rsatkichini, ularning muxrini saqlanishini va butunligini kuzatib boradi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan «Iste'molchi» ning vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi va «Iste'molchi» ga amal qilish uchun ko'rsatmalarni beradi. «Iste'molchi» yuqorida ko'rsatilgan xujjatga qo'l qo'yishdan bosh tortsa, dalolatnoma nusxasi unga topshirilib, bunda u o'zining yozma e'tirozini asoslab 2 kunlik muddatda taqdim etishi shart, aks holda bir tomonlama tuzilgan dalolatnoma qonuniy hisoblanib, mazkur oyda hisob kitob uchun hisobxonaga to'lov undirishga qabul qilinadi. Agar kelgusida mavjud qarzдорlik ixtiyoriy to'lanmasa, xujjatlar iqtisodiy sudiga belgilangan tartibda murojaat qilishga asos bo'ladi

3.3.3. «**Suv ta'minoti**» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

a) «**Suv ta'minoti**» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlarida;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «**Suv ta'minoti**» ning majburiyatlari:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste'molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqava tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ularidan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda iste'molchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

3.4.5. Iste'molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «**Suv ta'minoti**» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsientni qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste'molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;